

O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI MUHOFAZASI

Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna

Namangan Davlat Universiteti katta o'qituvchisi

Mashrabjonov Mirziyo Mirzohid o'g'li

Namangan Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda inson huquqlari va ijtimoiy hayot qay darajada olib borilayotgani va uning ro'li, shuningdek insoning erkinligi, shani, qadr qimmat, yoki ijtimoiy, siyosiy, ekologik, huquqlari qay darajada ustun ekanligi aks etgan.*

Kalit so'zlar: *Inson huquqlari, ombudsman, BMT, deklaratsiyasi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro pakt, tashkilot, muassasa, iqtisodiy, siyosiy, ekologik huquqlar, implimentatsiya, inson huquqlari bo'yicha milliy markaz.*

Abstract: *the level of human rights and social life and its role to increase human freedom, honor, value, or social, political, economic, rights.*

Key words: *Human rights, ombudsman, UN, declaration, international human rights covenant, organization, organization, economic, political, environmental rights, implementation, national center for human rights.*

Аннотация: *В статье отражено, в какой степени в нашей стране осуществляются права человека и общественная жизнь и ее роль, а также в какой степени преобладают свобода, честь, ценность человека или социальные, политические, экологические права.*

Ключевые слова: *Права человека, омбудсмен, ООН, декларация, международный пакт по правам человека, организация, институт, экономические, политические, экологические права, реализация, национальный центр по правам человека.*

Insoniyat hamisha o'z huquqlarini mukammal bo'lishi uchun kurashib kelgan. Huquqlar uchun kurash jamiyat a'zolarini maqsadlar bo'yicha turli partiyalarga, jamiyat birlashmalariga va boshqa maqsadli guruxlarga birlashtirgan. Insonlar huquqlarini mustahkamlashning yozma va tasdiqlangan shakllarini joriy etgan.

Ayniqsa, XX asrda jaxon urushi nomi bilan yer yuzida sodir etilgan inson huquqlariga tajovuz va xunrezliklar insoniyatni xalqaro birliklarini vujudga keltirdi.

Dastlab, Millatlar Ligasi shakllandi, qabul qilingan hujjatlari tavsiyaviy xarakterga ega hisoblangan.

XX asrdagi II jaxon urushi oqibatlarini bartaraf etish uchun, inson huquqlarini muhofaza etish maqsadida shakllangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti kuchli siyosatga ega xalqo tashkilot hisoblandi. Qabul qilingan hujjatlar majburiy ruchga ega ega boladi.

1945 yilda tashkil etilgan BMT tomonidan inson huquqlari borasida 100 dan ortiq xalqaro standartlar qabul qilingan.

Bu boradagi hujjatlardan dastlabki deklaratsiya "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi"dir. Ushbu hujjat 1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan. "Mazkur

inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishlari lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilinar ekan, bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyasini nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, BMT bosh Assambleya Sammitida- |"Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlar o'rtasida va ushbu davlatlarning hududlarida yashayotgan xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur"- deb keltirib o'tilgan. Bu deklaratsiya 30 ta moddadan iborat va moddalar BMTga a'zo davlatlardagi qonunlarning inson huquqlarini himoya qiluvchi asosiy hujjat sanaladi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ushbu deklaratsiyasiga qo'shilgan.

Inson huquqlari – insonning davlatga munosabati bo'yicha huquqiy maqomini, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ekologik sohalardagi imkoniyat va da'volarini ifodalovchi tushuncha. Inson huquqlari tushunchasining paydo bo'lishi burjua evalutsiyalari davriga borib taqaladi. Inson huquqlarining erkin va samarali amalga oshirilishi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlari umume'tirof etilgan shaxsiy (xalqaro huquq terminalogiyasi bo'yicha – fuqarolik), siyosiy, iqtisodiy, madaniy ekologik huquqlarga bo'linadi.

Nazariy jihatdan mutloq va nisbiy inson huquqlari mavjud. Demokratik davlatlarda mutloq inson huquqlarini cheklashga yoki vaqtincha to'xtatib qo'yishga har qanday sharoitda ham yo'l qo'yilmaydi. Inson huquqlari bir qatorida xalqaro asosiy hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilgan (yuqorida keltirib o'tilganidek 1948-yildagi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966- yildagi Fuqarolik va Siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va hakazo). Hozirgi davrda xalqaro huquqda inson huquqlariga bag'ishlangan xalqaro gumanitar huquq sohasi shakillangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi ushbu konstitutsiyani shu jumladan inson huquqlariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilgan holda qabul qilinayotganligi e'tirof etilgan. Insonning asosiy huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinch bo'limida mustahkamlab qo'yilgan.

Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) (shvedcha ombudsman-kimningdir manfaatini ifoda etuvchi vakil, inglizch ombudsman) – qator davlatlarda inson huquqlarining turli davlat organlari tomonidan roiya etilishu ustidan nazoratni amalga oshiruvchi, maxsus tartibda saylanadigan (tayinlanadigan) parlamentning mansabdor shaxsi.

Yurtimizda inson huquq va erkinligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga hamohang tarzda faoliyat yuritayotgan inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ham shu kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga kamarbastalik qilmoqda. Xabaringiz borki, joriy yilning 31- oktabr kuni Inson huquqlari bo'yicha milliy markazning tashkil topganiga 28 yil to'ladi. O'tgan davr mobaynida mazkur markaz o'z oldidagi o'ta dolzarb sanalgan milliy harakat rejasini tuzish, mamlakat konstitutsiyasini, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari hamda qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish, mamlakatimizda inson huquqlariga rioya etish va bu

huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo'yich jamoat birlashmalariga maslahat berish, inson huquqlarini muhofaza qilish sohasida jonbozlik ko'rsatganlarni rag'batlantirishning turli jihatlari yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda.

Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo'lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo'lmasada hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan. Inson huquqlari xalqaro ko'lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta'sir ko'rsatadigan doktrinadir. Inson huquqlari bu insonlarga berilgan imtiyoz bo'lib u dunyoning ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konvensiyalar orqali tan olingan.

Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-noyabrda qabul qilingan "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori yordamida Milliy markaz faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosi yana bir jabhada mukammallashdi. Ushbu qaror orqali inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi to'g'risidagi Nizom va Milliy markaz tuzilmasi tasdiqlangan. Keyinchalik hukumatning bir necha qarori bilan Milliy markaz faoliyatining muayyan sohalari izchil rivojlantirib borildi. Zotan, Milliy markazning tashkil etilishi va shakllantirilishida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratlashtirishni qo'llab-quvvatlash dasturi muhim ahamiyat kasb etgan.

O'z navbatida, 2018 yil 10 dekabrda - "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 70 yilligi nishonlangan kunda davlatimiz rahbari "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror inson huquqlariga doir ma'ruzalarni tayyorlash bo'yicha milliy mexanizmlarni mustahkamlash hamda kelgusida ularning faoliyatini amalga oshirish borasida BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissarining chaqirig'iga munosib javob bo'ldi.

Eng muhimi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 10 dekabrdagi qaroriga muvofiq, Milliy markazning maqomi tubdan oshirildi, vakolat va faoliyat ko'lami yanada kengaytirildi. Milliy markaz Nizomi va shtatlar jadvali qayta tasdiqlandi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, 2022 yil 25 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatining moddiy-texnika ta'minotini yanada yaxshilash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, Milliy markaz tarkibida inson huquqlari bo'yicha axborot-kutubxona markazi - "Inson huquqlari uyi" tashkil etildi.

Shuningdek, Milliy markazga qo'shimcha asosiy vazifalar yuklatildi. Bu o'rinda, jumladan, inson huquqlari sohasida ilmiy-huquqiy bazani tizimlashtirish; inson huquqlarini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning xronologiyasini yuritish; fuqarolar va ilmiy tadqiqotchilarga inson huquqlari bo'yicha tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratish haqida so'z bormoqda.

Bugungi kunda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish bo'yicha

davlat organlari va boshqa tashkilotlarning o'zaro hamkorligini, milliy ma'ruzalar tayyorlanishini, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta'minlovchi davlat organidir. Milliy markaz o'z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-sonli farmoniga binoan inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi ishlab chiqildi.

Bu farmon O'zbekistonda inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustivor yo'alishlaridan biri hisoblanadi.

2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustivor yo'nalishi bo'yicha "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlash sohasidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma - bosqich implimentatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonida ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson hayotini, dunyoqarashlarini hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda.

Jamiyatda "Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz" degan yangi ulug'vor maqsad shakllanadi va "Jamiyat - islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda.

2020-yil 12-13-avgust kunlari yoshlar huquqlarini targ'ib qilishning dolzarb masalalarga bag'ishlanadigan Inson huquqlari bo'yich Samarqand forumi videokonferensiya shaklida otkazilgani yaqqol misol bo'la oladi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assableyasi 72-sessiyasidagi taklifiga muvofiq tayyorlangan BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasi loiyhasi muhokama qilingan.

Yoshlar huquqlari bo'yichabir necha bor xalqaro konferensiyalar tashkil etildi. Chunki, Yangi O'zbekiston yoshlar mamlakati. Yoshlarni o'z huquqlarini bilish ruxida tarbiyalanmoqda, Ular o'z huquqlarini idrok etishsa jamiyat manfaatlarini ham muhofaza qila oladilar. Inson huquqlarini himoya qilish, yoshlarning kelajagini himoya qilishdir. Shavkat Mirziyoyev taklifi asosida yoshlar huquqlari konvensiyasini qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inson huquqlarini muhofaza qilish borasida

- mamlakatimiz davlatchilik tarixiy tajribasiga asoslanadi;
- xalqaro hamjamiyat standartlariga to'laqonli amal qilinmoqda;
- davlatimizda inson huquqlarini himoya qilish normalari qabulqilingan;
- inson huquqlarini himoya qilish davlatmehanzimi shakllantirilgan;
- yoshlarni huquqlarini himoya qilish borasida me'yorlarimiz yuqori saviyada shakllantirilmoqda;

Xalqaro tashkilotlar oldiga yoshlar huquqlari bo'yicha me'yorlar shakllantirish tashabbusini qo'ya olmoqdamiz.

Kelajakda inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishda huquqiy saviyamizni yanada yuksaltirish borasida davlat siyosati takomillashmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish asri.

2.O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat"nashriyoti 2010-yil.

3.Quvonchbekovna, O. S. The importance of "Kazilik adabi" in Abu Bakr Kasani's work "Badoi-us-sanoe". International Scientific Journal ISJ Theoretical& Applied Science Philodelphia, USA, (01).

4. Чубоева, О. НИГИЛИЗМ-ХУҚУҚИЙ ОНГ, ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАВФЛИ ОМИЛИ. In TURKEY International scientific-online conference:" THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH (No. 1 Part 5).

5.Чубоева О. О'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TAMINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS/2022-PART, 10.

6.Чубоева, О. Янги Ўзбекистон-III ренесансида хотин-қизлар ижтимоий ҳимояси. a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022)-Copenhagen: 2022

7.Ozodakhon, C. (2022). New Uzbekistan: Administrative Management Reform. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 123-125

8.Kuvonbekovna, C. O. (2024). OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG, 7(2), 194-198.

9.Constitution.uz

10.Ombudsman.uz